



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

2021 y. " 04 " mart

Nº 01-10/39

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish tartibini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tizimidagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining nomzodlarni vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi 2-ilovaga;

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmalarining nomzodlarni vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi (A.Muminov):

Agentlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish ishlarini tashkil etishga mas'ul etib belgilansin;

Agentlik tizimidagi vakant lavozimlarga ushbu buyruqqa 1-ilovada belgilangan tartibga muvofiq xodimlarning ishga qabul qilinishini nazorat qilsin;

muvaffaqiyatli xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda menejmentning zamonaviy tizimlari asosida kadrlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan Agentlik direktoriga doimiy taklif kiritib borsin.

3. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Direktor



A. Sa'dullayev

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining
tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga
nomzodlarni ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish, jarayonida shaffoflikni ta'minlash, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarining barchasiga teng imkoniyatlardan foydalangan holda ularni saralab olish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom talablari quyidagi lavozimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomenklaturasiga kiritilgan lavozimlar;

texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni tanlab olishga.

3. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov asosida saralab olish malaka talablariga muvofiq, eng munosib nomzodni tanlash maqsadida o'tkaziladi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

vakant lavozim – Agentlik tuzilmasida belgilangan, tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo'lgan ma'muriy boshqaruv xodimlari toifasidagi bo'sh lavozim;

nomzod – vakant lavozimga ishga kirish uchun Agentlikka elektron tarzda murojaat qilgan jismoniy shaxs;

Respublika komissiyasi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining nomzodlarni vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi;

hududiy komissiya – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmalarining nomzodlarni vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasi;

tanlov – mazkur Nizom talablari asosida o‘tkaziladigan, tashkilot oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish bo‘yicha talablarga nomzodning o‘z bilimi, malakasi, kasbiy ko‘nikmasi, shaxsiy-psixologik xususiyatlari bilan vakant lavozimga munosibligini aniqlashga qaratilgan nomzodni saralab olish jarayoni;

tanlov komissiyasi – Respublika komissiyasi va hududiy komissiya.

5. Tanlov mehnat qonunchiligi hamda mazkur Nizom talablariga asosan amalga oshiriladi.

6. Tanlovda davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli lavozimni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

2-bob. Tanlovni tashkil etish

7. Vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov o‘tkazish maqsadida Agentlikning markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida nomzodlarni vakant lavozimlarga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyalari tuziladi.

Bunda Respublika komissiyasi tarkibiga Agentlik rahbari, rahbarning muvofiqlashtiruvchi o‘rinbosari, kadrlar xizmati rahbari tanlov o‘tkaziladigan bo‘sh lavozim mavjud tarkibiy bo‘linma rahbari kiritiladi. Mazkur komissiya Agentlik tarkibiy tuzilmalaridagi vakant lavozimlarga, Agentlikning hududiy boshqarmasi boshlig‘i, uning o‘rinbosari va tuman (shahar) boshlig‘i lavozimlariga nomzodlarni ishga qabul qilish uchun tanlov o‘tkazadi.

Hududiy komissiya tarkibiga boshqarma boshlig‘i, uning o‘rinbosari, Agentlikning hududiy boshqarmasi kadrlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassisi kiritiladi. Mazkur komissiya Agentlikning hududiy boshqarmalari (boshliq o‘rinbosaridan tashqari) va tuman (shahar) bo‘limlaridagi (hududiy bo‘lim boshlig‘idan tashqari) vakant lavozimga nomzodlarni ishga olish uchun tanlov o‘tkazadi.

Zaruratga qarab tanlov komissiyalari tarkibiga tanlov o‘tkaziladigan bo‘sh lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa shaxslar ham kiritilishi mumkin.

8. Respublika komissiyasi tomonidan tanlovni tashkil etish Agentlik markaziy apparati Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu bo‘lim boshlig‘i tanlov komissiyasi mas’ul kotibi hisoblanadi.

Hududiy komissiyasi tomonidan tanlovni tashkil etish Agentlik hududiy boshqarmalarining Agentlikning hududiy boshqarma kadrlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi, ushbu xodim tanlov komissiyasi mas’ul kotibi hisoblanadi.

9. Tanlov komissiyasi tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va suhbat o‘tkazadi.

10. Mas'ul kotib tanlovni e'lon qiladi, nomzodlardan hujjatlarni qabul qiladi, test va suhbat o'tkazilishini tashkil etadi, nomzodlarni tanlov bosqichlarida ishtirok etadi, nomzodni uning ishga qabul qilinganligi yoki ishga qabul qilishni rad etilganligi to'g'risida xabardor qiladi.

11. Tanlov quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon qilish;

ikkinchi bosqich – hujjatlarni qabul qilish va saralash;

uchinchi bosqich – nomzodlarni test sinovlaridan o'tkazish;

to'rtinchi bosqich – suhbat o'tkazish;

beshinchi bosqich – nomzodni ishga qabul qilish yoki rad etish bo'yicha xulosa berish.

12. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida nomzodning roziligiga asosan uchinchi va to'rtinchi bosqichlarda audio va videoyozuvi qurilmalaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha (transport xarajatlari, yashash, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan foydalanish) xarajatlar nomzodning o'z hisobidan qoplanadi.

3-bob. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lonni joylashtirish

13. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik tarzda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidan foydalangan holda "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali" apparat-dasturiy kompleksiga (vacancy.argos.uz) (keyingi o'rinlarda – sayt) qo'yiladi.

Shu bilan birga, vakant lavozimlar to'g'risidagi e'lon Agentlikning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladi.

Agentlikning ehtiyojidan kelib chiqib davriy nashrlarda ham joylashtirilishi mumkin.

14. Mas'ul kotib vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksiga belgilangan tartibda joylashtirilishi hamda vakant lavozimni egallash bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lonni ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishini ta'minlaydi.

15. Lavozimlarning ayrim toifalariga tayinlash uchun qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu lavozimlarga e'lon berishda e'longa qo'shimcha talablar haqida ma'lumot kiritiladi.

16. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha nomzodlarning arizalarini qabul qilish muddati tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 10 kunni tashkil qiladi.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha arizalar kelib tushmagan taqdirda, arizalarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 10 kunga uzaytiriladi.

17. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha arizalarni qabul qilish faqat nomzodlar tomonidan saytdagi elektron so'rovnomanini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

17. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha arizalarni qabul qilish faqat nomzodlar tomonidan saytdagi elektron so'rovnomani to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

Bunda nomzodga bir vaqtning o'zida uchtdan ortiq bo'lmagan davlat vakant lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish xuquqi beriladi.

Nomzodning xohishiga ko'ra arizada o'z malakasini tasdiqlovchi diplom, sertifikat va boshqa hujjatlarning elektron nusxalarini ham ilova qilishi mumkin.

Arizalar qabul qilishda nomzodlardan hujjatlari va ularning nusxalarini qog'oz shaklida talab qilish taqiqlanadi.

18. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha ariza taqdim qilishda yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etilganligi aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish uchun asos hisoblanadi.

19. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan ariza kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi. Tanlovda ishtirok etish uchun bitta ariza kelib tushgan taqdirda, istisno tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda tanlov komissiyasi rahbarining qarori bilan tanlov o'tkazilishi mumkin.

20. Mas'ul kotib tomonidan ariza qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida:

nomzodning taqdim etgan hujjatlarini vakant lavozimni egallash bo'yicha malaka talablarga mosligi o'rganib chiqiladi;

o'rganish natijasida malaka talablariga muvofiq bo'lgan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritiladi, malaka talablariga muvofiq bo'lmagan nomzodlar tanlov ishtirokchilari ro'yxatiga kiritilmaydi va belgilangan tartibda xabardor qilinadi;

nomzodlar ro'yxati tanlov komissiyasiga taqdim qilinadi va tanlov komissiyasi tanlov o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qiladi;

elektron sayt orqali tanlov bosqichi o'tish joyi va vaqti to'g'risida nomzodlarga xabar berilishini ta'minlaydi.

Tanlov unda ishtirok etish bo'yicha arizalar qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab yetti ish kuni ichida o'tkazilishi lozim.

21. Tanlovlarni tashkil etish va o'tkazishda belgilangan qoidaga rioya etmaslik holatlari, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazgan noqonuniy hatti-harakatlar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tanlov natijasini to'liq yoki qisman bekor qilish huquqiga ega.

4-bob. Test sinovlarini o'tkazish tartibi

22. Test sinovlari nomzodlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

23. Test savollari (topshiriqlari) Agentlik tomonidan ishlab chiqiladi va doimiy ravishda yangilab boriladi.

Bunda, savollar Agentlikning darajasi (respublika, hudud va tuman)ga muvofiq hamda vakant lavozimning xususiyatidan kelib chiqqan holda ishlab

bino yoki inshootida yoxud onlayn tarzda (masofadan turib) tashkil qilinadi.

25. Nomzodning test savollari umumiy ko'rsatkichining kamida 70 foiziga teng ball to'plashi imtihon natijalarini ijobiy deb topish uchun asos bo'ladi.

26. Test sinovlari natijalari tanlov komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va test sinovlari o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmasdan saytda e'lon qilinadi.

27. Test sinovlarini muvaffaqiyatli topshira olmagan nomzodlar ushbu Nizomga muvofiq e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashish uchun hujjat topshirishi mumkin.

28. Test sinovlari o'tkazilishi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar testdan o'tmagan deb hisoblanadi.

5-bob. Suhbat o'tkazish tartibi

29. Suhbat tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki kismi ishtirok etishi shart.

Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa, suhbat natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad qilish haqida arz berishi shart.

30. Suhbat ishchi organ tomonidan Agentlik belgilagan tartibda alohida bino yoki inshootida yoxud onlayn tarzda (masofadan turib) tashkil qilinadi.

Test-sinovlari va suhbat orqali nomzodni baholash uning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini vakant lavozimni egallash bo'yicha malakaviy talablarga mos kelishini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat jarayonida tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzodga ko'pi bilan beshta savol beradi. Tanlov komissiyasi a'zolari har bir savolga berilgan javobni baholaydi.

31. Har bir nomzod bilan o'tkazilgan suhbat natijalari bo'yicha mazkur nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda suhbat varaqasi to'ldiriladi.

32. Tanlov komissiyasining har bir a'zosi suhbat varaqasida quyidagi jumalardan birini tanlash orqali o'z tavsiyalarini ko'rsatadi:

mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi;

dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi;

mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi.

33. Ishga qabul qilishda ustunlik mehnat shartnomasi tuzish bo'yicha tanlov komissiyasi a'zolarining eng ko'p ijobiy tavsiyalarini olgan nomzodga beriladi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Agar tanlov komissiyasi a'zolarining ijobiy xulosalari teng bo'lsa, tanlov komissiyasi raisi va a'zolari xulosalariga asoslanib yakuniy xulosa beriladi.

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi o'z vakili orqali suhbat vaqtida tartib-taomillar tanlovlarni

tashkillashtirish va o'tkazish qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining vakili tomonidan bayonnomada keltirilgan holatlar bo'yicha tekshirish o'tkazish va davlat organi yoki tashkilotiga suhbat natijalarini yoki tanlovni butunlay bekor qilish bo'yicha taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

35. Nomzodlar tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda xulosa qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari buyicha komissiya xulosasi ustidan davlat organi yoki tashkiloti rahbariga, yuqori turuvchi davlat organi yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi yoxud sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Suhbat o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabardor qilingan lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar suhbatdan o'tmagan hisoblanadi.

36. Tanlov komissiyasining nomzodni ishga qabul qilish bo'yicha tavsiya berilgan (Agentlik yoki idora tomonidan ijobiy xulosa berilgan) kundan e'tiboran belgilangan tartibda bir hafta mobaynida davlat organi yoki tashkilotining rahbari tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

37. Agar qonun hujjatlarida vakant lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli agentlik yoki idora bilan kelishish lozimligi belgilangan bo'lsa, mas'ul kotib uning tegishli hujjatlarini agentlik yoki idoraga kelishish uchun yuborishi lozim hamda ijobiy javob olingandan so'ng belgilangan tartibda mehnat shartnomasini tuzish choralarini ko'radi.

6-bob. Yakuniy qoida

38. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

39. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan.

Kelishildi:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish
agentligi direktorining
birinchi o'rinbosari**



A. Xasanov

“ ____ ” _____ 2021-yil

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi markaziy apparatiniing tarkibiy
tuzilmalari va hududiy bo'linmalaridagi
vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga
qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

S U H B A T V A R A G' I

(suhbat o'tkaziladigan joy)

20__ yil "___" _____

Ism, familiyasi, otasini ismi	
Tug'ilgan yili va joyi	
Ma'lumoti	
Diplom bo'yicha mutaxassisligi	
Amaldagi lavozimi	
Tavsiya etilayotgan lavozim	

Komissiya a'zosi/ F.I.Sh, lavozimi/

***Bildirilgan fikr va mulohaza** (Tavsiya: mehnat shartnomasini tuzish tavsiya etiladi; dastlabki sinov muddati bilan mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi; mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi)*

_____/imzo/

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining nomzodlarni vakant
lavozimlarga ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi
TARKIBI**

1. A.Z. Sa'dullayev – Yoshlar ishlari agentligi direktori,
Tanlov komissiyasi raisi
2. S.G'. Ashurov – Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi
o'rinbosari, Tanlov komissiya raisi o'rinbosari
3. Lavozimiga ko'ra – Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari
(tegishli soha yo'nalishi bo'yicha)
4. Lavozimiga ko'ra – Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatining
tegishli boshqarma yoki bo'lim boshlig'i (tegishli
soha yo'nalishi bo'yicha)
5. B.A. Kucharov – Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi boshlig'i
6. A.A. Alimov – Yoshlarga oid qonunchilik tashabbuslari va huquqiy
savodxonlikni oshirish bo'limi bo'lim boshlig'i,
Yoshlar ishlari agentligi kasaba uyushmasi raisi
7. A.N. Xalikov – Yuridik byuro boshlig'i
8. A.M. Muminov – Inson resurslarini rivojlantirish bo'limi boshlig'i,
Tanlov komissiyasi mas'ul kotibi

***Izoh:** Komissiya a'zosi lavozimdan ketganda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifasini
bajarayotgan shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.*

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi direktorining
2021-yil 4 - mart dagi
01-10/39 -son buyrug'iga
3-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
hududiy boshqarmalarining nomzodlarni vakant lavozimlarga
ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi
TARKIBI**

1. Lavozimiga ko'ra – Agentlikning hududiy boshqarma boshlig'i,
Tanlov komissiyasi raisi
2. Lavozimiga ko'ra – Agentlikning hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari
3. Lavozimiga ko'ra – Agentlikning hududiy boshqarma kadrlar bilan
ishlash bo'yicha mutaxassisi
4. Lavozimiga ko'ra – Agentlikning tuman (shahar) bo'limi boshlig'i*

***Izoh:** Komissiya a'zosi lavozimdan ketganda uning o'rniga tayinlangan yoki vazifasini
bajarayotgan shaxslar komissiya tarkibiga kiritiladi.*

**Ushbu komissiya a'zosi Agentlikning tegishli tuman (shahar) bo'limiga xodimlarni ishga
qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan tanlovda tanlov komissiyasi tarkibiga kiritiladi.*